



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI BOSHQARISHNING IJTIMOIIY- PEDAGOGIK ASOSLARI

Axrarova Gulrux Gulamkadirovna

Uchtepa tumani MMTB tasarrufidagi
531-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori,
MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirishning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida nazariy jihatdan asoslangan. Inklyuziv muhitning mazmuni, boshqaruv obyekti sifatidagi xususiyatlari, rahbar, pedagog, maxsus pedagog, psixolog, tibbiy xodim va ota-onalar faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari yoritilgan. Maktabgacha ta'limni boshqarishga oid dissertatsion yondashuvlar inklyuziv ta'limning teng imkoniyat, individual ehtiyoj, to'siqsiz muhit, hamkorlik va monitoring tamoyillari bilan integratsiyalangan. Kontent-tahlil natijasida inklyuziv muhitni boshqarishning maqsadli-strategik, tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi, kadrlar-metodik, adaptiv-resurs, oilaviy-ijtimoiy sheriklik hamda monitoring-korreksion mexanizmlari aniqlashtirilgan. Taklif etilgan yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv qadriyatlarni tashkiliy amaliyotga aylantirish, boshqaruv qarorlarini ehtiyojlar diagnostikasi va natijalar monitoringiga asoslash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim muhiti, maktabgacha ta'lim tashkiloti, boshqaruv mexanizmi, ijtimoiy-pedagogik zaruriyat, pedagogik menejment, adaptiv muhit, mutaxassislararo hamkorlik, monitoring, ota-onalar bilan sheriklik, ta'lim sifati.

Abstract: The article theoretically substantiates the improvement of management mechanisms for creating an inclusive educational environment in preschool educational organizations as a socio-pedagogical necessity. It examines the content of an inclusive environment, its characteristics as an object of management, and the coordination of the activities of administrators, teachers, special educators, psychologists, medical staff, and parents. Dissertation-based approaches to preschool management are integrated with the principles of equal opportunity, individual needs, accessibility, cooperation, and monitoring. The content analysis specifies six interrelated mechanisms: goal-oriented strategic management, organizational coordination, staff and methodological support, adaptive resource management, family and social partnership, and monitoring-corrective management. The proposed approach enables preschool organizations to transform inclusive values into organizational practice and to base management decisions on needs assessment and systematic monitoring of outcomes.

Key words: inclusive educational environment, preschool educational organization, management mechanism, socio-pedagogical necessity, educational management, adaptive environment, interdisciplinary cooperation, monitoring, family partnership, quality of education.

Аннотация: В статье теоретически обосновано совершенствование механизмов управления формированием инклюзивной образовательной среды в дошкольных образовательных организациях как социально-педагогической необходимости. Раскрыты содержание инклюзивной среды, её особенности как объекта управления, вопросы координации деятельности руководителя, педагогов, специальных педагогов, психологов, медицинских работников и родителей. Подходы к управлению дошкольным образованием интегрированы с принципами равных возможностей, учёта индивидуальных потребностей, доступности, сотрудничества и мониторинга. На основе контент-анализа уточнены целевой-стратегический, организационно-координационный, кадрово-методический, адаптивно-ресурсный, семейно-социальный и мониторингово-коррекционный механизмы. Предлагаемый подход позволяет преобразовать ценности инклюзии в организационную практику и основывать управленческие решения на диагностике потребностей и систематическом мониторинге результатов.

Ключевые слова: инклюзивная образовательная среда, дошкольная образовательная организация, механизм управления, социально-педагогическая необходимость, педагогический менеджмент, адаптивная среда, междисциплинарное взаимодействие, мониторинг, партнёрство с семьёй, качество образования.



KIRISH

Zamonaviy ta'lim siyosatida har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash, uning individual rivojlanish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy hayotda to'laqonli ishtirok etishiga sharoit yaratish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Mazkur vazifaning hal etilishi ayniqsa maktabgacha ta'lim bosqichida muhimdir. Chunki bolaning keyingi ta'lim yo'li, o'ziga munosabati, tengdoshlari bilan muloqoti va jamiyatdagi o'rnini his etishi ko'p jihatdan aynan ilk bolalik davrida shakllanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bolalarni umumiy ta'lim muhitidan ajratish emas, balki ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan, xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi muhitga kiritish bugungi pedagogik jarayonning insonparvarlik mezonini sifatida qaralmoqda ^[1; 2; 7].

Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv muhitni yaratish faqat bolani guruhga qabul qilish yoki binoda pandus o'rnatish bilan chegaralanmaydi. Inklyuziya ta'lim mazmunini moslashtirish, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, mutaxassislar hamkorligini yo'lga qo'yish, ota-onalarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish, resurslarni maqsadli taqsimlash, bolalar o'rtasida qabul qilish va hamjihatlik madaniyatini shakllantirishni talab qiladigan murakkab tashkiliy-pedagogik tizimdir. Shuning uchun inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirish masalasi alohida metodik tadbirlar yig'indisi sifatida emas, balki boshqaruv obyekti sifatida o'rganilishi lozim ^[1; 3; 4].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda boshqaruv funksiyalari, ta'lim sifatini boshqarish, monitoring, baholash mezonlari, resurslardan foydalanish va rahbarlarning kasbiy kompetensiyasi masalalari keng yoritilgan. Jumladan, T.N. Kalmuratovning tadqiqotida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish mexanizmini muammolarni pedagogik monitoring qilish, tashxislash va pedagogik korreksiyalash asosida takomillashtirish g'oyasi ilgari surilgan. Mazkur metodologik yondashuv inklyuziv muhitga tatbiq etilganda boshqaruv jarayoni "holatni aniqlash - ehtiyojni baholash - rejalashtirish - muvofiqlashtirish - amalga oshirish - monitoring - korreksiya" sikli asosida tashkil etiladi ^[6].

Inklyuziv ta'lim muhitining samaradorligi alohida ehtiyojli bolaning tashkilotda jismonan mavjudligi bilan emas, balki uning faol ishtiroki, tengdoshlari tomonidan qabul qilinishi, rivojlanish dinamikasi, pedagogik yordamning uzluksizligi va oilaning jarayondan qoniqishi bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkichlar esa rahbarning maqsadli boshqaruv qarorlari, jamoaning umumiy qadriyatlarga birlashishi, vazifalarning aniq taqsimlanishi va muntazam monitoring bilan bevosita bog'liq ^[3; 5].

Tadqiqot muammosining dolzarbligi amaliyotda bir qator qarama-qarshiliklarning mavjudligi bilan ham izohlanadi: inklyuziv ta'limni rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy talab bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorgarlik darajasi o'rtasida; bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish talabi bilan standartlashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni o'rtasida; pedagoglar va mutaxassislar hamkorligiga ehtiyoj bilan ularning faoliyati parokanda tashkil etilishi o'rtasida; monitoring ma'lumotlaridan boshqaruv qarorlarida foydalanish zarurati bilan baholashning ko'pincha rasmiy tusda qolishi o'rtasida tafovutlar kuzatiladi. Ushbu qarama-qarshiliklarni bartaraf etish boshqaruv mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirishni talab qiladi ^[2; 6; 7].

Maqolaning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirish boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini asoslash va mazkur mexanizmlarning o'zaro bog'langan tarkibini aniqlashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

"Ta'lim muhiti" tushunchasi shaxsning rivojlanishi uchun yaratilgan moddiy, ijtimoiy, psixologik va didaktik shart-sharoitlar yaxlitligini anglatadi. Inklyuziv yondashuvda ushbu muhit barcha bolalar uchun ochiq, moslashtirilgan, xavfsiz va faol ishtirokni ta'minlaydigan tizim sifatida talqin qilinadi ^[1; 2].

M. Ainscow inklyuziyani ta'lim tizimidagi to'siqlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan uzluksiz rivojlanish jarayoni sifatida izohlaydi ^[2]. Bu yondashuvda muammo bolada emas, balki uning ishtirokiga to'sqinlik qilayotgan tashkiliy, metodik va munosabat omillarida ko'riladi. Demak, boshqaruvning asosiy vazifasi alohida ehtiyojli bolani mavjud tizimga moslashtirish emas, balki tizimni bolalarning xilma-xilligiga moslashtirishdan iborat.

UNESCONing inklyuziya va ta'limdagi tenglikni ta'minlashga oid qo'llanmasida inklyuziv rivojlanish siyosat, amaliyot va madaniyatning o'zaro birligi orqali ta'minlanishi ta'kidlanadi ^[1]. Siyosat tashkilotning maqsadlari va me'yoriy tartiblarini, amaliyot pedagogik faoliyat va qo'llab-quvvatlash usullarini, madaniyat esa jamoa qadriyatlarini, munosabatlari va kutishlarini qamrab oladi. Mazkur uchlikdan birining sustligi inklyuziv muhitni barqaror rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Erta bolalik davridagi inklyuziv ta'limga oid tadqiqotlarda S.L. Odom, V. Buysse va E. Soukakou sifatli inklyuziv amaliyotning asosiy belgilariga bolalarning guruh faoliyatidagi ishtiroki, individual moslashtirish, oilalar bilan hamkorlik, mutaxassislararo jamoa faoliyati va pedagogik natijalarni baholashni kiritadilar ^[3]. Bu belgilar

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv funksiyalarini kengaytiradi: u nafaqat umumiy pedagogik jarayonni tashkil etadi, balki turli mutaxassislar faoliyatini bir maqsadga yo'naltiradi, individual yordamning uzluksizligini nazorat qiladi va oilalar bilan sheriklikni qo'llab-quvvatlaydi.

Ta'lim menejmenti nazariyasida boshqaruv tashkilotning maqsadlariga erishish uchun rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, muvofiqlashtirish, nazorat va tahlil funksiyalarining uzluksiz sikli sifatida tushuniladi. T. Bush ta'lim tashkilotlari boshqaruvida maqsad, tashkiliy tuzilma, qaror qabul qilish, madaniyat va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatning muhimligini ko'rsatadi ^[4]. Inklyuziv muhitda mazkur funksiyalar pedagogik va ijtimoiy mazmun bilan boyiydi: rejalashtirish ehtiyojlarni hisobga olishi, tashkil etish to'siqsizlikni ta'minlashi, nazorat esa faqat hujjatlar emas, bolaning real ishtiroki va rivojlanishiga yo'naltirilishi kerak.

K. Heikka va M. Waniganayake maktabgacha ta'limda taqsimlangan rahbarlik konsepsiyasini ilgari surib, boshqaruv mas'uliyatining rahbar, pedagog va boshqa ishtirokchilar o'rtasida maqsadli taqsimlanishini asoslaydilar ^[5]. Inklyuziv ta'lim sharoitida bu konsepsiya alohida ahamiyatga ega, chunki bolaning ehtiyojlarini birgina rahbar yoki tarbiyachi to'liq qamrab olmaydi. Ta'limiy, korreksion, psixologik, tibbiy va oilaviy ma'lumotlar yagona qaror maydonida birlashtirilishi lozim.

Mahalliy ilmiy yondashuvlarda inklyuziv ta'lim barcha bolalarning individual imkoniyatlari va alohida ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan jarayon sifatida talqin etiladi. F.U. Qodirova va D.A. Po'latova inklyuziv ta'limda pedagogik hamkorlik, oilaga yo'naltirilgan yondashuv va resurslardan samarali foydalanishni ustuvor deb hisoblaydilar ^[7]. Maktabgacha ta'lim menejmentiga oid tadqiqotlarda esa boshqaruv samaradorligini monitoring, ta'lim sifati, rahbar kompetensiyasi va pedagogik jarayon natijalari bilan bog'lash tendensiyasi kuzatiladi.

T.N. Kalmuratov maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv mexanizmini pedagogik monitoring, tashxislash va korreksiyalash asosida takomillashtirishni taklif etadi ^[6]. Ushbu yondashuvning inklyuziv muhit uchun metodologik ahamiyati shundaki, u boshqaruvni bir martalik buyruq yoki tadbir emas, balki tahliliy ma'lumotlarga tayangan uzluksiz rivojlanish sikli sifatida ko'rishga imkon beradi. Biroq inklyuziv ta'lim sharoitida monitoring mezonlari umumiy ta'lim sifati bilan chegaralanmasdan, bolaning ishtiroki, moslashuvi, qo'llab-quvvatlashning individual darajasi, oilaning hamkorligi va jamoaning inklyuziv madaniyatini ham qamrab olishi zarur.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inklyuziv muhitning pedagogik mazmuni va maktabgacha ta'limni boshqarish nazariyasi alohida yo'nalishlarda yetarlicha rivojlangan. Biroq ularni yagona ilmiy konstruksiyada birlashtirish, ya'ni inklyuziv muhitni boshqaruv obyekti sifatida tavsiflash, uning mexanizmlari, subyektlari, axborot oqimlari va natija ko'rsatkichlarini aniqlashtirish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan, muhitga asoslangan va hamkorlik yondashuvlari metodologik tayanch sifatida belgilandi. Tizimli yondashuv inklyuziv ta'lim muhitini moddiy sharoit, pedagogik jarayon, boshqaruv, kasbiy hamkorlik, oilaviy sheriklik va monitoring komponentlarining o'zaro bog'langan yaxlitligi sifatida ko'rish imkonini berdi. Faoliyatli yondashuv boshqaruv mexanizmlarini rahbar va jamoaning aniq harakatlari, vazifalari va javobgarligi orqali tavsiflashga xizmat qildi ^[1; 4; 6].

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir bolaning ehtiyoji, qiziqishi, rivojlanish sur'ati va kommunikativ imkoniyatlarini boshqaruv qarorlarining boshlang'ich nuqtasi sifatida belgilaydi. Muhitga asoslangan yondashuv esa muammoni faqat bola xususiyatlariga bog'lamasdan, uning faol ishtirokini cheklayotgan jismoniy, didaktik, kommunikativ va ijtimoiy to'siqlarni aniqlashga yo'naltiradi. Hamkorlik yondashuvi rahbar, tarbiyachi, maxsus pedagog, logoped, psixolog, tibbiy xodim, ota-ona va mahalla vakillari o'rtasidagi o'zaro mas'uliyatni nazarda tutadi ^[1; 2; 7].

Tadqiqot materiallari sifatida maktabgacha ta'limni boshqarishga oid PhD dissertatsiyasi, milliy normativ-huquqiy hujjatlar, inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro metodologik manbalar, maktabgacha inklyuziya sifati va ta'lim menejmentiga oid ilmiy adabiyotlar tanlandi.

Kontent-tahlil birliklari quyidagicha belgilandi:

- boshqaruv maqsadi;
- boshqaruv subyektlari;
- boshqaruv funksiyalari;
- resurslar;
- pedagogik va ijtimoiy to'siqlar;



- monitoring ko'rsatkichlari;
- boshqaruv qarorlarini korreksiyalash.

Tahlil jarayonida "boshqaruv mexanizmi" tushunchasi maqsadga erishishni ta'minlaydigan tamoyillar, funktsiyalar, tashkiliy tuzilmalar, usullar, vositalar, axborot aloqalari va qayta aloqa jarayonlarining barqaror tizimi sifatida qabul qilindi. "Inklyuziv ta'lim muhiti" esa turli rivojlanish imkoniyatlariga ega bolalarning xavfsizligi, qabul qilinishi, faol ishtiroki va individual rivojlanishini ta'minlovchi jismoniy, pedagogik, psixologik, ijtimoiy va axborot sharoitlari yaxlitligi sifatida belgilandi.

Ushbu ta'riflar asosida ijtimoiy-pedagogik zaruriyatni baholashning beshta mezonini ishlab chiqildi:

- ijtimoiy talab;
- bolaning huquq va ehtiyojlari;
- tashkilotning amaliy tayyorgarligi;
- boshqaruvdagi muvofiqlashtirish ehtiyoji;
- natijalarni monitoring qilish zarurati.

Mazkur mezonlar inklyuziv muhitni shakllantirish boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning sabablarini tizimlashtirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati bir-biri bilan bog'langan bir necha omillar orqali namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Birinchi omil - ta'lim olish huquqining tengligi va bolalarning xilma-xilligini qadriyat sifatida qabul qilishdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarni "me'yorga mos" va "mos emas" guruhlariga ajratadigan muhitdan barcha bolalarning imkoniyatini aniqlaydigan va rivojlantiradigan muhitga o'tishi kerak. Bu o'zgarish faqat pedagogik metodlar bilan emas, balki tashkilot siyosati, rahbarlik pozitsiyasi va resurs taqsimoti orqali amalga oshadi [1; 2; 7].

Ikkinchi omil - erta pedagogik yordamning yuqori samaradorligidir. Maktabgacha yoshda bolaning rivojlantirishidagi qiyinchiliklarni o'z vaqtida aniqlash, oilaga maslahat berish va individual qo'llab-quvvatlashni tashkil etish keyingi bosqichlarda murakkab ikkilamchi muammolarning oldini oladi. Shu sababli rahbar diagnostika, mutaxassislar konsiliumi, individual rivojlanish rejalari va kuzatuv natijalarini yagona boshqaruv jarayoniga birlashtirishi lozim [3].

Uchinchi omil - oilalarning ijtimoiy ehtiyoji va ularning ta'lim tashkilotiga bo'lgan ishonchidir. Ota-onalar farzandining guruhda qabul qilinishi, xavfsizligi, rivojlanishida aniq natija kuzatilishi va mutaxassislardan izchil yordam olishini kutadi. Oilaning ishtirokisiz tuzilgan pedagogik reja bolaning kundalik hayoti bilan uzviy bog'lanmaydi. Shu bois boshqaruv mexanizmi ota-onani axborot oluvchi emas, balki qaror qabul qilish va natijalarni baholashda ishtirok etuvchi sherik sifatida ko'rishi zarur [3; 7].

To'rtinchi omil - pedagog va mutaxassislar faoliyatining o'zaro bog'liqligidir. Tarbiyachi bolaning kundalik faoliyatini kuzatadi, logoped yoki maxsus pedagog korreksion vazifalarni belgilaydi, psixolog ijtimoiy-emotsional holatni baholaydi, tibbiy xodim sog'liq bilan bog'liq omillarni hisobga oladi. Ularning xulosalari bir-biridan uzilgan holda qo'llansa, bola uchun turli va ba'zan qarama-qarshi talablar yuzaga keladi. Boshqaruvning muvofiqlashtiruvchi funksiyasi umumiy maqsad, yagona terminologiya, ma'lumot almashish tartibi va javobgarlik chegaralarini belgilashi kerak [3; 5].

Beshinchi omil - maktabgacha ta'lim sifati tushunchasining kengayishidir. Inklyuziv tashkilotda sifat faqat mashg'ulotlar soni, hujjatlarning to'g'ri yuritilishi yoki umumiy dastur bajarilishi bilan o'lchanmaydi. Sifat bolaning qatnashishi, tanlov imkoniyati, muloqotga kirishishi, o'zini xavfsiz his qilishi, individual yutuqlarining tan olinishi va oilaning qoniqishi kabi ko'rsatkichlar bilan ham baholanadi. Bunday ko'rsatkichlar monitoring tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi [3; 4].

Oltinchi omil - mavjud resurslarning cheklanganligi va ulardan oqilona foydalanish ehtiyojidir. Har bir tashkilotda barcha tor mutaxassislarni doimiy shtatda saqlash imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Shu sababli hududiy resurs markazlari, mobil mutaxassislar guruhi, maslahat xizmatlari, raqamli metodik bank va boshqa tashkilotlar bilan tarmoqlararo hamkorlik boshqaruvning muhim vositasiga aylanadi (1-jadval).



1-jadval: Inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirish boshqaruvini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat omillari

Zaruriyat omili	Amaliy muammo	Boshqaruv vazifasi	Kutiladigan natija
Teng ta'lim huquqi	Bolalarni ajratish va ishtirokdagi to'siqlar	Inklyuziv siyosat va qabul qilish mezonlarini belgilash	Barcha bolalarning teng va faol ishtiroki
Erta yordam	Ehtiyojlarni kech aniqlash, yordamning parokandaligi	Diagnostika va individual qo'llab-quvvatlashni muvofiqlashtirish	Rivojlanish qiyinchiliklarining erda bartaraf etilishi
Mutaxassislar hamkorligi	Vazifalar takrorlanishi yoki qarama-qarshiligi	Konsilium, ma'lumot almashish va mas'uliyatni taqsimlash	Yagona pedagogik va korreksion yo'nalish
Oilaviy sheriklik	Ota-onalarning jarayondan chetda qolishi	Maslahat, hamkorlik rejasi va qayta aloqa tizimini yaratish	Oila va tashkilot harakatlarining uyg'unligi
Adaptiv resurslar	Muhit va vositalarning bola ehtiyojiga mos emasligi	Resurslarni baholash, moslashtirish va maqsadli taqsimlash	To'siqsiz, xavfsiz va rivojlantiruvchi muhit
Monitoring	Natijalarni formal baholash	Ishtirok, rivojlanish va muhit sifatini muntazam tahlil qilish	Dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlari

Yuqoridagi omillar inklyuziv ta'lim muhitini boshqarish oddiy ma'muriy nazoratdan farq qilishini ko'rsatadi. Mazkur jarayon rahbardan bir vaqtning o'zida strateg, tashkilotchi, pedagogik lider, vositachi va tahlilchi bo'lishni talab etadi. Rahbar inklyuziv qadriyatlarni jamoaning umumiy maqsadiga aylantirishi, pedagoglarga amaliy yordam ko'rsatishi, turli manfaatdor tomonlar o'rtasida muvozanatni saqlashi va natijalarni dalillar asosida tahlil qilishi kerak [4; 5; 6].

Kontent-tahlil asosida maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv muhitni shakllantirishning oltita o'zaro bog'langan boshqaruv mexanizmi aniqlashtirildi. Ular alohida tadbirlar emas, balki yagona boshqaruv siklining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

- 1. Maqsadli-strategik mexanizm.** Mazkur mexanizm tashkilotning inklyuziv rivojlanish yo'nalishini belgilaydi. Uning tarkibiga mavjud holat va ehtiyojlarni tahlil qilish, inklyuziv missiya va qadriyatlarni shakllantirish, qisqa hamda uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, yillik rejaga aniq vazifalar va indikatorlarni kiritish kiradi. Strategik reja umumiy shiorlardan iborat bo'lmashligi, masalan, "barcha bolalar uchun ishtirok imkoniyatini oshirish", "pedagoglarning adaptiv metodlardan foydalanish darajasini rivojlantirish", "ota-onalar bilan individual hamkorlik rejasini joriy etish" kabi o'lchanadigan maqsadlarni qamrab olishi kerak [1; 4].
- 2. Tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi mexanizm.** Bu mexanizm rahbar, metodist, tarbiyachi, logoped, maxsus pedagog, psixolog, tibbiy xodim va ota-onalar faoliyatining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Uning asosiy vositalari - doimiy faoliyat yurituvchi psixologik-pedagogik konsilium, vazifalar va vakolatlar matriksasi, individual rivojlanish rejasini jamoaviy ishlab chiqish, ma'lumot almashish protokoli va muntazam muvofiqlashtiruvchi yig'ilishlardir. Bunda maxfiylik, bolaning manfaatlari va ota-onaning xabardor roziligi asosiy etika mezonlari bo'lishi lozim [3; 5].
- 3. Kadrlar-metodik mexanizm.** Inklyuziv muhitning sifati pedagoglarning munosabati va kasbiy mahoratiga bevosita bog'liq. Shuning uchun rahbar bir martalik seminar bilan cheklanmasdan, pedagoglarning ehtiyojlarini diagnostika qilish, individual kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, mentorlik, o'zaro kuzatuv, metodik konsultatsiya, keys tahlili va mikro-superviziya tizimini tashkil etishi kerak. Kasbiy rivojlanish mazmuni alohida ehtiyojlarni tushunish, universal dizayn, xulq-atvorni ijobiy qo'llab-quvvatlash, kommunikativ moslashtirish, differensial ta'lim va oilaga yo'naltirilgan hamkorlikni qamrab oladi [2; 7].
- 4. Adaptiv-resurs mexanizmi.** Mazkur mexanizm jismoniy, didaktik, kommunikativ va texnologik muhitni bolalarning turli ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Bunga kirish-chiqish va harakatlanish imkoniyatlari, yoritish va akustika, tinchlanish zonasi, vizual ko'rsatmalar, alternativ kommunikatsiya vositalari, moslashtirilgan o'yin va o'quv materiallari kiradi. Resurs boshqaruvi faqat jihoz sotib olish emas, balki mavjud vositalarni ehtiyojlar xaritasiga muvofiq taqsimlash, foydalanish samaradorligini baholash va hududiy hamkorlar imkoniyatlaridan foydalanishni ham anglatadi [1; 3].
- 5. Oilaviy va ijtimoiy sheriklik mexanizmi.** Oila bolaning rivojlanishi haqida eng muhim ma'lumot manbai va inklyuziv jarayonning teng huquqli subyektidir. Boshqaruv tizimi ota-onalar bilan dastlabki suhbat, ehtiyoj va kutishlarni aniqlash, individual reja tuzishda ishtirok, muntazam qayta aloqa, psixologik-pedagogik maslahat va uy sharoitidagi qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalarni qamrab olishi kerak. Mahalla, tibbiyot



muassasalari, ijtimoiy himoya organlari, oliy ta'lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar bilan tarmoqlararo hamkorlik resurslar doirasini kengaytiradi [3; 7].

- 6. Monitoring-korreksion mexanizm.** Monitoring inklyuziv muhitni boshqarishning yakuniy emas, balki doimiy tarkibiy qismidir. U bolaning individual rivojlanishi, guruhdagi ishtiroki, tengdoshlari bilan muloqoti, pedagogik moslashtirish sifati, mutaxassislar hamkorligi, ota-onalar qoniqishi va resurslardan foydalanish ko'rsatkichlarini qamrab oladi. Natijalar rahbar va jamoa tomonidan tahlil qilinib, reja, metodlar, resurs taqsimoti yoki hamkorlik tartibiga zarur o'zgartirishlar kiritiladi. Shu tariqa monitoring "nazorat qilish"dan "rivojlantirish uchun ma'lumot olish" vositasiga aylanadi [3; 6].

Taklif etilgan mexanizmlarning samarali ishlashi ularning o'zaro bog'liqligiga bog'liq. Masalan, strategik maqsad pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va resurslar bilan ta'minlanmasa amalga oshmaydi; monitoring natijalari muvofiqlashtiruvchi qarorlarga aylantirilmasa amaliy o'zgarish yuz bermaydi; ota-onalar bilan hamkorlik individual reja va pedagogik faoliyatga integratsiyalanmasa formal tusda qoladi.

2-jadval: Inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirish boshqaruv mexanizmlarining funksional tavsifi

Mexanizm	Asosiy funksiyalar	Boshqaruv vositalari	Baholash indikatorlari
Maqsadli-strategik	Tahlil, maqsad qo'yish, rejalashtirish	Ehtiyojlar xaritasi, inklyuziv rivojlanish dasturi	Maqsadlarning aniqligi va bajarilish dinamikasi
Tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi	Vazifalarni taqsimlash, hamkorlikni tashkil etish	Konsilium, mas'uliyat matriksasi, yig'ilish protokoli	Hamkorlikning muntazamligi va qarorlarning bajarilishi
Kadrlar-metodik	Kompetensiyani rivojlantirish, metodik yordam	Trening, mentorlik, superviziya, keys tahlili	Pedagoglarning tayyorgarlik va amaliy moslashtirish darajasi
Adaptiv-resurs	Muhitni moslashtirish, resurslarni taqsimlash	Audit, resurs xaritasi, universal dizayn elementlari	To'siqsizlik, xavfsizlik va vositalardan foydalanish
Oilaviy-ijtimoiy sheriklik	Ota-onalar va tashkilotlar bilan hamkorlik	Maslahat, hamkorlik rejasi, tarmoq kelishuvi	Ota-onalar ishtiroki va qoniqishi
Monitoring-korreksion	Natijalarni kuzatish, tahlil va korreksiya	Monitoring kartasi, kuzatuv, so'rov, ekspert bahosi	Bola ishtiroki, rivojlanishi va muhit sifati dinamikasi

Boshqaruv mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqichda tashkilotning inklyuziv tayyorgarligi audit qilinadi: jismoniy muhit, pedagoglar kompetensiyasi, mavjud mutaxassislar, ota-onalar bilan hamkorlik va monitoring holati baholanadi.

Ikkinchi bosqichda ustuvor muammolar aniqlanib, maqsadlar va javobgar shaxslar belgilanadi.

Uchinchi bosqichda pedagogik va tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqichda natijalar monitoring qilinib, boshqaruv qarorlari korreksiyalanadi.

Inklyuziv muhitni baholashda faqat yakuniy natijalarni kutish to'g'ri emas. Jarayon ko'rsatkichlari ham muhim: bolaning mashg'ulot va o'yinlarda qatnashish chastotasi, pedagogning moslashtirishdan foydalanishi, tengdoshlar bilan ijobiy muloqot, ota-onaga berilgan qayta aloqa, konsilium qarorlarining bajarilishi va resurslardan foydalanish muntazam kuzatilishi kerak. Ushbu ma'lumotlar tashkilot rahbariga muammoni erta aniqlash va zarur chorani o'z vaqtida belgilash imkonini beradi.

Rahbarning inklyuziv boshqaruv kompetensiyasi mazkur mexanizmlarning birlashtiruvchi omilidir. Bu kompetensiya inklyuziv qadriyatlarni tushunish, tizimli tahlil qilish, jamoani motivatsiyalash, nizolarni konstruktiv hal etish, resurslarni ustuvorlik asosida taqsimlash, hamkorlik tarmog'ini rivojlantirish va monitoring natijalaridan foydalanish qobiliyatlarini qamrab oladi. Shuning uchun rahbarlar malakasini oshirish dasturlariga "inklyuziv muhitni strategik boshqarish", "mutaxassislararo jamoaga liderlik", "oilaga yo'naltirilgan boshqaruv", "inklyuziv sifat monitoringi" kabi modullarni kiritish zarur [4; 5; 6].

Pedagogik jamoada xavfsiz kasbiy muhit yaratish ham boshqaruv vazifasidir. Pedagog xatolarini yashiradigan yoki yordam so'rashdan cho'chiydigan muhitda inklyuziv amaliyot rivojlanmaydi. Rahbar muammolarni jazolash uchun emas, o'rganish va takomillashtirish uchun tahlil qilish madaniyatini shakllantirishi kerak. Superviziya, hamkasblararo maslahat va darsdan keyingi refleksiya shu maqsadga xizmat qiladi.



Inklyuziv muhitning barqarorligi tashkilotning alohida rahbari yoki bir faol pedagogiga bog'lanib qolmasligi kerak. Jarayon me'yoriy hujjatlar, ichki tartiblar, aniq vazifalar, monitoring vositalari va jamoaviy tajribaga singdirilgandagina institutsional xarakter kasb etadi. Shu ma'noda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish inklyuziv ta'limni individual tashabbusdan tashkilotning tizimli faoliyatiga aylantiradi.

Tahlil natijalari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv muhitni boshqarishning umumiy algoritmi quyidagicha ifodalanadi:

- ijtimoiy va individual ehtiyojlarni aniqlash;
- mavjud sharoit va to'siqlarni baholash;
- maqsad va natija indikatorlarini belgilash;
- subyektlar vazifalarini taqsimlash;
- muhit va ta'lim jarayonini moslashtirish;
- pedagog va oilalarni qo'llab-quvvatlash;
- jarayon hamda natijalarni monitoring qilish;
- tahlil asosida korreksion boshqaruv qarorini qabul qilish.

Ushbu algoritmnining siklikligi tashkilotning yangi ehtiyoj va vaziyatlarga moslashuvchanligini ta'minlaydi [1; 4; 6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirish boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy jamiyatning tenglik, insonparvarlik va ijtimoiy adolatga bo'lgan talabidan kelib chiqadigan ijtimoiy-pedagogik zaruriyatdir. Inklyuziv muhit bolani tashkilotga jismonan qabul qilish bilan emas, balki uning faol ishtiroki, xavfsizligi, qabul qilinishi, individual rivojlanishi va oilaning jarayondagi sherikligi bilan tavsiflanadi.

Maktabgacha ta'limni boshqarishga oid ilmiy yondashuvlarning tahlili monitoring, tashxislash, rejalashtirish, muvofiqlashtirish va korreksiyalash boshqaruv mexanizmining asosiy elementlari ekanini ko'rsatdi. Inklyuziv ta'lim mazmuni ushbu elementlarni teng imkoniyat, to'siqsizlik, individual ehtiyoj, mutaxassislararo hamkorlik va oilaga yo'naltirilganlik tamoyillari bilan boyitadi.

Tadqiqotda inklyuziv muhitni boshqarishning maqsadli-strategik, tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi, kadrlar-metodik, adaptiv-resurs, oilaviy-ijtimoiy sheriklik va monitoring-korreksion mexanizmlari aniqlashtirildi. Ularning o'zaro uyg'unligi rahbarlik qarorlarini bolalar va oilalarning real ehtiyojlariga yo'naltirish, pedagogik jamoa faoliyatini birlashtirish va natijalarga asoslangan boshqaruvni ta'minlaydi.

Amaliy jihatdan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv tayyorgarlik auditi, psixologik-pedagogik konsilium, individual rivojlanish rejasi, pedagoglar uchun mentorlik va superviziya, ota-onalar bilan hamkorlik rejasi, resurslar xaritasi hamda inklyuziv muhit monitoring kartasini joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur vositalar inklyuziv ta'limni alohida tadbirlar yig'indisidan barqaror tashkilot tizimiga aylantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning takomillashtirilgan mexanizmi "ehtiyojlarni aniqlash - maqsadli rejalashtirish - hamkorlikni muvofiqlashtirish - adaptiv sharoit yaratish - monitoring - reflektiv korreksiya" sikli asosida qurilishi lozim. Bunday yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha bolalar uchun ochiq, moslashuvchan va rivojlantiruvchi muhit sifatidagi salohiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. - Paris: UNESCO, 2017.
2. Ainscow M. Promoting inclusion and equity in education: lessons from international experiences // Nordic Journal of Studies in Educational Policy. - 2020. - Vol. 6, No. 1. - P. 7-16.
3. Odom S.L., Buysse V., Soukakou E. Inclusion for young children with disabilities: A quarter century of research perspectives // Journal of Early Intervention. - 2011. - Vol. 33, No. 4. - P. 344-356.
4. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. - 5th ed. - London: SAGE Publications, 2020.
5. Heikka J., Waniganayake M. Pedagogical leadership from a distributed perspective within the context of early childhood education // International Journal of Leadership in Education. - 2011. - Vol. 14, No. 4. - P. 499-512.
6. Kalmuratov T.N. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent, 2023. - 132 b.
7. Qodirova F.U., Pulatova D.A. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. - Chirchiq: ChDPU, 2022. - 259 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.